

SUVDAN FOYDALANISH VA SUVNI TEJASH BORASIDAGI MUAMMOLAR

Suyunov.J.Sh. t.f.f.d.(PhD),

Atayeva Z., Bozorov N.,
talabalar (SamDAQU)

Dunyo aholisining qarib 40 foizi toza ichimlik suvi yetishmaydigan hududlarda istiqomat qiladi. 2025 yilga kelib, har 10 kishidan 6 nafari yoki 5,5 milliard aholi toza ichimlik suvi tanqis dududda yashashi mumkin. Ushbu muammo bizning mintaqamiz uchun ham ahamiyatlidir. Boz ustiga, bugungi kunda Yer yuzidagi daryolarning yarmiga yaqini ifloslangan, ularning resurslari tugab bormoqda. Suv tanqisligi katta iqqisodiy qiyinchilik bilan birga, aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Markaziy Osiyoda suv zaxiralarining qisqarishi, ularning sifat ko'rsatkichlari pasayishi ham eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Albatta, aholining salomatligi, kelajagi bevosita toza ichimlik suvi bilan bogliq. Kelajakda aholi sonining oshib borishi bilan yer usti va yer osti suvlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanish yanada ortib boradi. Shu sababli ham yaqin yillarda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, uni tejash borasida keng ko'lamli targ'ibot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda suv va suvdan foydalanish muammolarining asosiy mazmunini ochish orqali bugungi kunda insonlar duch kelayotgan qiyinchiliklar, antropogen ta'sir natijasida paydo bo'layotgan suv taqchilligi va uning oqibatlari, Orol fojiasining yuzaga kelish sabablari, xususan suvdan foydalanish masalalari borasidagi bilim va amaliy ko'nikmalarini qo'llash lozim.

Antropogen ta'sir oqibatida suv taqchilligi va uning oqibatida yuzaga kelayotgan muammolar borasida aholining xabardorligini oshirish lozim.

Suv tushunchasi, suv yetishmovchiligi muammosi, ichimlik suvining sifati, O'zbekiston, Markaziy Osiyo, Orol dengizi, transchegaraviy daryolar va h.k.z., Havo (kislород)dan so'ng suv insonlar, hayvonot va o'simliklar hayotida asosiy o'rinni egallaydi. Inson ovqatsiz besh hafta va undan ko'proq yashashi mumkin, ammo suvsiz faqat bir necha kungina yashay oladi xolos. Ekinlarning 80—95% og'irligi va hayvonlarning 70% og'irligi suvdan tashkil topgan. Inson miyasi og'irligining 90%i maxsus toza suvlar bilan shakllangan. Suv insonning jigari, buyragi, terisi va o'pkasi uning qonini va butun organizmini xavfli va keraksiz moddalardan to'xtovsiz tozalab

turadi. Ichimlik suviga aralashgan, inson organizmiga xos bo'lgan begona moddalar odamlarning ruhiy holatini izdan chiqaradi, qadimda arab va Afrika mamlakatlarida odamlar tog'dan erib tushgan qor-yomg'ir suvlarini meshlarda olib kelib, gumbazsimon qurilgan maxsus sardobalarda to'plab, kelasi bahorgacha foydalanishgan. Suvning tozaligini asrab turish uchun esa o'zlarining kumush, tilla buyumlari va taqinchoqlarini suvga solib qo'yganlar. Demak, ular suvning bahosini, qadrini oltindan baland tutganlar. Ma'lumki, Yer yuzidagi umumiy suv manbaini yuz foiz deb oladigan bo'lsak, shundan 2,5% ichimlik suviga to'g'ri keladi. Inson vujudining esa o'rtacha 85%ini suv tashkil etadi. Shu raqamlarning o'ziyoq tabiat va insondagi suvga bo'lgan ehtiyojning cheksizligidan dalolatdir. Yer yuzi aholisining 40%dan ortiqrog'i suv yetishmovchiligidan aziyat chekadi. Butun sayyoramizda havo haroratining ko'tarilishi va iqlim o'zgarishi oqibatida bu ko'rsatkichning yanada ortishi ehtimoli mavjud. Garchi 1991 yildan boshlab 2,1 milliard inson nisbatan sifatli suv va sanitariya tizimidan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritgan bo'lsada, Yer sharining har bir qit'asida xavfsiz ichimlik suvi zaxiralarining kamayib borishi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib turibdi. Hozirda yer yuzasida yashayotgan 7,55 mlrd. aholining 2 mlrd. (26,5%)i toza ichimlik suviga muhtoj, 2,4 mlrd. (31,8%)i esa sanitar talablarga javob bermaydigan suvdan foydalanishga majbur, 1,9 mlrd. (25,2%) aholi yo'l qo'yib bo'lmaydigan sanitar-gigienik sharoitda kun kechirmoqda. Soha mutaxassislarining taxminlarga ko'ra 2025 yilga borib, Yer yuzasi aholisining har 10 nafaridan 6 nafari, yoki 5,5 mlrd. kishi toza ichimlik suvi yetishmaydigan hududlarda yashashga majbur bo'ladi. Agar jahon hamjamiyati tomonidan tegishli choralar ko'rilmasa, bu holat yildan-yilga yomonlashib boraveradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, suv muammosining oldini olish borasida: har bir inson suvning dunyo, mamlakat, tabiat, oilasi hayotidagi ahamiyatini tushunishi lozim, har bir fuqaroga ekologik muammolarning mazmunini va milliy qadriyatlarga asoslangan suvni tejash sabablarini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni (06.05.1993 y.);
2. O‘zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va suv iste’moli tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida. 06.12.2016 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Suv xo‘jaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida. [lex.uz/ docs/245506?query](http://lex.uz/docs/245506?query)
4. O‘zbekistonning yer, suv resurslari: muammo va yechimlar. - T.: «Baktria press», 2017
5. Qosimova N. Global iqlim o‘zgarishi va jurnalistika. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - T., Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi. 2016.